

NIMA UCHUN ODAM TARTIBLI BO'LISHI KERAK

Muallif: Shamsiddinova Muhlisa.

Ilmiy rahbar: Usmonova Feruzaxon Raxmonali.

Assalomu alaykum, aziz o'qishni sevuvchi do'stlarim! Bugun biz "Nima uchun odam tartibli bo'lishi kerak?" mavzusida fikr yuritamiz. Albatta, tartibli bo'lish hozir ham, kelajakda ham har bir inson uchun juda muhimdir. Chunki tartibli inson hayotda ko'p yutuqlarga erishadi va qiyin vaziyatlarda ham o'zini boshqara oladi.

Hayot davomida turli yaxshi va yomon hodisalar uchraydi. Shunday paytlarda tartibli inson ko'pincha yutib chiqadi. Chunki tartib insonning vaqtini to'g'ri boshqarishiga, mas'uliyatli bo'lishiga va muammolarni yengib o'tishiga yordam beradi.

Masalan, inson har kuni bir xil vaqtda uxlab, bir xil vaqtda uyg'onsa, bu uning sog'lig'i uchun foydali bo'ladi. Erta uxlash va erta turish insonni intizomli qiladi. Agar inson bu odatni har kuni takrorlasa, u asta-sekin yaxshi odatga, keyinchalik esa tartib va intizomga aylanadi. Albatta, boshida bu qiyin bo'lishi mumkin, ammo inson taslim bo'lmasa, albatta bunga o'rganadi.

Bu mavzuni yaxshiroq tushunish uchun Mariya ismli qiz haqida misol keltiraman. Mariya oliygohning birinchi kurs talabasi edi. U yangi muhit, yangi do'stlar va yangi hayot haqida juda ko'p o'ylardi. Avvaliga u o'qish juda oson bo'ladi deb o'ylagan edi. Ammo vaqt o'tib, hammasi u o'ylagandek emasligini tushundi.

O'qish boshlangach, Mariya har kuni ertalab vaqtli turishga qiynalardi. U kechasi uzoq vaqt telefon o'ynab, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazardi. Instagram, YouTube va Telegramda do'stlari bilan yozishib, ba'zan tungi soat birgacha uxlamasdi. Natijada ertalab uyg'onishi qiyin bo'lar edi.

U shoshilganidan xonasini yig'ishtirishga, kiyimlarini joyiga qo'yishga va hatto nonushta qilishga ham ulgurmasdi. Ba'zan daftar va kitoblarini sumkasiga solishni unutardi. Shu sababli u asabiylashardi, kerakli narsalarini topolmay qiynalardi. Tartibsizlik asta-sekin katta muammoga aylana boshladi.

Mariya ko'pincha uyidan kech chiqardi. Shu sababli transportda joy topolmay, darsga kech qolardi. O'qituvchilaridan tanbeh eshitardi. Bu esa uning kayfiyatiga ham salbiy ta'sir qilardi. Bundan tashqari, uy vazifalarini ham vaqtida bajara olmasdi. Chunki uning kun tartibi noto'g'ri edi.

Mariya o'qishdan keyin ishlardi ham. U magazinda ishlagani uchun darsdan chiqib ishga ketardi va kechqurun uyga charchab qaytardi. Uyga kelgach esa vaqtini yana telefon bilan o'tkazardi. Natijada xonasi tartibsiz, kitoblari esa har joyda yotardi.

Bir oy davomida uning hayoti shu tarzda davom etdi. Keyinchalik Mariya muammo nimada ekanligini tushunib yetdi. U hayotini o'zgartirish uchun avvalo o'z kun tartibini to'g'rilashga qaror qildi.

Birinchi navbatda, u o'ziga vaqt ajratishni boshladi. Har kuni vaqtida dush qabul qilar, kiyimlarini tayyorlab qo'yar edi. Keyin esa uxlash vaqtini asta-sekin oldinga surdi. Avval 11:30 da uxlar edi, keyin esa har kuni 5-10 daqiqadan oldinroq uxlashga harakat qildi. Oxiri u kechki soat 10:00 da uxlashga o'rgandi.

Bu odat unga juda katta yordam berdi. Mariya ertalab vaqtli uyg'onadigan bo'ldi. Endi unda o'zi uchun ham, darslari uchun ham yetarlicha vaqt bor edi. U ertalab shoshilmasdan tayyorlanar, nonushta qilar va darsga vaqtida yetib borardi.

Bundan tashqari, Mariya vaqtni boshqarishni ham o'rgandi. U ertangi kun uchun kerakli kitob va daftarlarini oldindan tayyorlab qo'yardi. Xonasini ozoda saqlardi. Dam olish kunlari esa xonasini tozalab, boshqa ishlariga ham ulgurardi.

Albatta, boshida bu unga qiyin bo'ldi. Chunki inson uchun shirin uyqudan voz kechish oson emas. Ammo u taslim bo'lmadi. Harakat qilishda davom etdi va asta-sekin tartibli hayotga o'rganib ketdi.

Natijada Mariyaning hayoti yaxshi tomonga o'zgardi. U o'qishni yaxshi ko'rib qoldi, darslarini vaqtida bajaradigan bo'ldi va o'zini xotirjam his qila boshladi. Chunki tartib inson hayotiga tinchlik, intizom va muvaffaqiyat olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tartib inson hayotida juda muhim o'rin tutadi. Tartibli inson vaqtini qadrlaydi, ishlarini vaqtida bajaradi va maqsadlariga osonroq erishadi. Shuning uchun har birimiz tartibli bo'lishga harakat qilishimiz kerak. Chunki tartib — muvaffaqiyatning kalitidir.